

**Xayatov Xurshidjon Usmanovich, Murodov Shaxriddin Qahramonovich**

**xml tilini php dashturlash tilida ishlatish**

**(o'quv-uslubiy qo'llanma)**

**BUXORO 2018 yil**

Ushbu qo`llanmada XML tili va uning imkoniyatlar, PHP tili orqali XML dan foydalanish haqidagi boshlang`ich tushunchalar keltirilgan. Web dastrulash bilan mustaqil o`rganuvchilar uchun mo`ljallangan. Bundan tashqari XML bilan ishlashni o`rganishni xohlovchilarga mo`ljallangan bo`lib, ular mazkur qo`llanmadan foydalanishi maqsadga muofiqdir.

Mualifflar:

X. U. Xayatov – Buxoro davlat universiteti  
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi” katta  
o’qituvchisi

Sh. Q. Murodov - Buxoro davlat universiteti  
Kasb ta`limi (Informatika va axborot  
texnologiyalari) ta’lim yo’nalishi 4-kurs  
talabasi

Taqrizchilar:

O.I. Jalolov – Buxoro davlat universiteti  
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi” dotsenti  
Z. Sh. Jo`rayev – Buxoro davlat universiteti  
“Axborot texnologiyalari” kafedrasi” katta  
o’qituvchisi

# **MUNDARIJA**

|   |    |
|---|----|
| Kirish.....   | 4  |
| I – bob. Web serverlar va texnologiyalar.....   | 5  |
| 1.1 Web serverlar haqida.....   | 5  |
| 1.2 Web texnologiyalar haqida .....   | 11 |
| 1.3 Php tili va undan foydalanish .....   | 12 |
| II – bob. XML va undan foydalanish.....   | 28 |
| 2.1 XML tili va uning sintaksisi.....   | 28 |
| 2.2 XML da XPath bilan ishlash.....   | 38 |
| 2.3 XML da XQuery bilan ishlash.....  | 39 |
| III – bob. PHP da XML bilan ishlash.....  | 40 |
| 3.1 PHP orqali XML ma`lumotlari bilan ishlash .....                                   | 40 |
| 3.2 PHP orqali XML ma`lumotlarini o`zgartirish, qo`shish,<br>o`chirish.....           | 65 |
| 3.3 PHP orqali XML ma`lumotlariga XPath, XQuery orqali<br>ma`lumotlarini tanlash..... | 68 |
| Foydalanilga adabiyotlar .....  | 71 |

## **KIRISH**

Jahonda axborot texnologiyalari bo`yicha juda rivojlanib bormoqda. Endilikda dasturlar tuzish bir yoki ikki shaxs tomonidan emas balki guruh yoki kompaniyalar orqali tuzilmoqda. Katta imkoniyatli dasturlar tuzishda, berilganlar bazasi, XML fayllarida ma`lumotlar saqlanmoqda. Bu ma`lumotlar bilan ishlaydigan dasturlar uch xil texnologiya asosida yaratilmoqda. Desktop (yakka tartibda) turdag'i dasturlar. Mijoz-server texnologiyasi asosida dasturlar. Web texnologiyalar asosida tuzilgan dasturlar.

Hozirgi paytda eng qulay texnologiya web texnologiya bo`lib, unda barcha dasturiy ta`minotlarni serverda joylashgan bo`ladi. Mijozning kompyuterida esa atigi web brouzer bo`lishi yetarli. Qolgan web-ilova dasturlarining hammasi serverga joylashgan bo`ladi.

Ushbu o`quv – uslubiy qo`llanma “Xml tilini php dashturlash tilida ishlatish” deb nomlangan. Bunda XML tili, uning sintaksisi va undan foydalanish haqida ma`lumotlar keltirilgan. XML ma`lumotlar ustida ishlash va PHP orqali undan foydalanish bo`yicha ma`lumotlar ham keltirilgan. Bu ma`lumotlardan Web dasturlash faniga mos keladigan mavzulariga doir bo`lgan mavzularida foydalanish va mustaqil shug`ullanuvchilar uchun mo`ljallangan.

# I bob. Web serverlar va texnologiyalar

## 1.1 Web serverlar haqida

Bugungi kunda internet jadal suratda rivojlanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda internetga oid xar-xil termin, atamalar ham ortib bormoqda. Masalan sayt, server, web-sahifa, portal,.. va hk. Bu terminlarni o’rganish, hozirgi hunda juda muhim hisoblanadi. Biror inson bilan internet haqida suhbatlashsangiz, bu terminlarni bilmasangiz, boshqa tildagi inson bilan suhbatlashayotganday bo’lasiz va uni tushunmaysiz ham. Bu rejamda shu terminlardan biri hisoblangan web-server haqida to’xtalib o’taman.

Biror bir internet saytga kirish uchun, brouzerga manzil yozsangiz, brouzer shu sayt joylashgan kompyuteriga, kompyuterdagi ma'lumotlarni ko'rsatish uchun so'rov yuboradi. Kompyuter oddiy termin bo'lgani uchun bu so'rovni tushunmaydi. Shuning uchun, ya'ni bu so'rovni tushunish uchun, kompyuteriga dastur o'rnatiladi. Mana shu dastur web dastur deyiladi. Bu kompyuter esa, web-serverga aylanadi. Bugungi kunda esa buni web dastur deyilmasdan web-server deb atalmoqda.

Demak, web-server — foydalanuvchidan kelayotgan so'rovlarni qabul qilib, tegishli javobni jo'natajigan dasturdir. Foydalanuvchi sifatida web brouzer(http, https protokoli orqali), mobil telefon(wap pratokoli orqali), ba'zi dasturlar (antiviruslar) bo'lishi mumkin. Web-server orqali butun sayt boshqariladi. Ya'ni sayt katologlariga ruxsatlarni beradi, xavfsilik jihatdan IP manzillarini blokka oladi. Foydalanuvchilarni ro'yxatdan o'tkazish va ko'plab ishlarni amalga oshiradi. Web-serverni siz uyingizda ham yaratishingiz mumkin. Buning uchun bitta kompyuter ajratilib, unga biror web dastur o'rnatasiz. Bu dasturni yaxshilab sozlashingiz kerak bo'ladi. So'ng o'z saytingizni shu serverga joylashtirasiz va biror domen sotib olasiz. Bundan kelib chiqadiki, saytingiz ishlashi uchun siz ajratgan kompyuter doimo yoqilgan holatda bo'lishi kerak.

Web-serverga o'rnatiladigan web dasturlarning turlari anchagina. Hozirda eng zamonaviy va eng ommabop dastur bu – albatta “Apache”dir. Apache Software Foundation korxonasi tamonidan ishlab chiqarilgan. Quyida ba'zi web-serverlar nomini keltirish mumkin:

- Apache - Apache Software Foundation
- IIS – Microsoft mahsuloti hisoblanadi. Server operatsion tizimlariga o'rnatilgan(Windows server 2003, Windows server 2008,..).
- Nginx – ochiq web-server, katta hajmdagi web-saytlar uchun.
- Lighttpd – ochiq web-server.
- Google web server – Google tomonidan ishlab chiqilgan.
- Cherokee – web interfeys orqali boshqariladi.
- Rootage – java tilida yozilgan web-server.

- THTTPD – oddiy, kichik hajmdagi, xavfsiz web-server.

Apache Software Fundation (ASF) – Apache dasturiy ta'minoti loyihalarni rivojlantirishga ko'maklashuv tashkilot-jamg'armasi va boshqalar bilan birga, HTTP web-serveri ham kiradi. ASF 1999-yil Delaverdag'i, AQSH Apache Group guruhidan tashkil qilingan.

Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, 2011-yil yanvar oyiga kelib, tarmoqda 273301445 ta sayt faoliyat yuritgan. Apache web-serveri ancha vaqtan beri yetakchi o'rirlarni egallab kelmoqda. Keyingi vaqtarda web-serverlar bozoridagi o'rni 59,13 foizini tashkil qiladi. ASF hamjamiyati jahonning turli joylarida yashovchi va turli Open Source loyihalarida ishtirok qiluvchi loyihachi tashabbuskorlardan tashkil qilingan.

Apache o'ziga xos tomoni – bu kodlarni birgalikda ishlab chiqish va ochiq, pragmatik – Apache Software License litsenziyasining mavjudligidir.

Apache HTTP-server - bepul tarqatiluvchi web-server hisoblanib, Shimoliy Amerikadagi Apaches qabilasi nomiga qo'yilgan. Bundan tashqari, ingliz tilidan "A tasodifiy" server deb tarjima qilinadi, odatda rus foydalanuvchilar orasida apache buzib A pathy deb yuritiladi. Apache dasturiy ta'minoti Linux, BSD, Mac OS, Microsoft Windows, Novell NetWare, BeOS operatsion tizimlari qo'llab-quvvatlaydigan kross-platforma hisoblanadi. Apachening asosiy afzalliklari ishonchliligi va konfiguratsiya moslashuvchanlidigidir. Bu xato xabarlarni, ma'lumotlar bazasi foydalanuvchilarga aniqlashda, o'zgartirish uchun ishlatiladigan ma'lumotlarni taqdim qilish uchun tashqi modulni ulash imkonini beradi.

Server 1995 yilda yozilgan deb hisoblanadi va uning kulgili nomi «a tasodifiy», u keyin mashhur World Wide Web Server NCSA httpd 1.3 xatolari topilgan. Keyinchalik, versiya 2.x, server qayta yozilgan va hozir kodi NCSA o'z ichiga oladi. Ayni paytda, rivojlanish versiyasi 2.2 yaratilmoqda va 1.3 va 2.0 versiyalarida xavfsizlikdagi xatolar qaytadan yozib chiqilmoqda. Ayni paytda, 2.4 - 2.4.3 (21 avgust 2012) eng oxirgi versiyasi ommaga taqdim etilgan.

1996 yilning Aprel oyidan hozirgi zamон Internetida eng ommabop HTTP-server hisoblanadi. Netcraftning Apache foydalanish haqida quyidagi statistik ma'lumotlarni ko'rish mumkin:

2007 yil avgust oyida, u barcha web-serverlarida 51% ishlagan;  
2009 yil may oyida 46% da ishlagan;  
2011 yilning yanvar oyida 59%, ya’ni - 160 milliondan ortiq saytlarda ishlagan.

Apache yadrosi o‘zinig asosiy funksiyalari, konfiguratsiya fayllarini tahlil qilish, HTTP protokoli va tizimda modulni yuklash imkoniyatiga ega. Apache yadrosi uchinchi tomon dasturchilarni jalb qilmasdan butunlay Apache Software Foundation tomonidan ishlab chiqilgan.

Apache yadrosi to‘liq C dasturlash tilida yozilgan.

### **Tizim konfiguratsiya**

Apache tizim konfiguratsiya matn konfiguratsiya fayllariga asoslangan. Bu an’anaviy konfiguratsiyaning uch darjasи bor:

- Server konfiguratsiya (httpd.conf).
- Virtual host konfiguratsiya (httpd.conf, 2.2 versiyadan boshlab qo‘shimcha httpd-vhosts.conf)
- Papka konfiguratsiya darjasи (.htaccess).

Bu dasturda papka bloklariga asoslangan o‘zining til konfiguratsiya fayllar bor. Deyarli barcha yadro parametrlarni konfiguratsiya fayllar o‘zgartirish mumkin, bu orqali MPM(Multiprotessor modeli)ni boshqarish mumkin. Modelning katta qismi o‘z parametrlarni ega. Model operatsion tizimda ish davomida ba’zi konfiguratsiya fayllaridan foydalanadi. (masalan / etc / passwd va / etc / hosts). Bundan tashqari, parametrlarni buyruq qatori orqali o‘rnatishingiz mumkin.

### ***Multiprotessorli model***

Apache web serveri uchun juda ko‘p multiprotessorli modellar mavjud.

### **Tizim moduli**

Apache HTTP server modulini qo’llab quvvatlaydi. Turli vazifalarni bajaruvchi 500 dan ortiq modullar bor. Ulardan bazilari Apache Software

Foundation jamoasi tamonidan yaratilgan, lekin asosiy qismi Open Source jamoasi tamonidan ishlab chiqilgan.

Apache virtual xosting ichki mexanizmi hisoblanadi. U butun boshli ko'p saytlarga bitta IP manzil orqali xizmat ko'rsaradi va ularning har birini alohida ko'rsatadi.

Har bir virtual xost uchun o'z yadro va modul konfiguratsiya ko'rsatishimiz butun sayt yoki fayllarga kirishlarni cheklash mumkin. Ayrim MPM lar, masalan: Apache-ITK httpda har bir virtual xost uchun alohida uid va guid identifikatorlarini ishlashini talab qiladi.

### **Boshqa dasturlar va dasturlash tillari bilan integratsiyasi**

Apache turli xil dasturlash tillar va tizimni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlash uchun ko'pgina qo'shimcha modullar bor. Bular:

PHP (mod\_php).

Python (mod python mod msgi).

Ruby (apache ruby).

Perl (mod Perl).

ASP (apache-asp).

TCL (cheaga)

Bundan tashqari Apache C, C++, Lua, Java deeyarli barcha dasturlash tillarini ishlatish imkonini beradi. U CGI va FastC mexanizmlarini qo'llab-quvatlaydi.

## **IIS – Internet Informatsion Service.**

MS Internet Information Server ommaviyligiga ko‘ra ikkinchi hisiblanadi. NetCraft kompaniyasi tomonidan to‘plangan ma’lumotlarga asoslansak IIS Web-serveri jami tugunlarning 35% iga xizmat qiladi. IIS 7.0 versiyasining chiqarilishi 2001 yil Windows NT 4.0 tarkibida chiqarilgan 1-versiyasining 10 yilligiga to‘g‘ri keldi. 4 yildan so‘ng IIS5.0 internetda eng keng tarqalgan server bo‘ldi, biroq bir necha oy o‘tishi bilan birga mashhur cherv viruslari-CodeRed va Nimdaning qurbaniga aylandi. Windows Server 2003 tarkibidagi 6-versiyasi barcha urinishlar xavfsizlikni ishonchlilikni va samaradorlikni oshirishga qaratilgan jiddiy qayta ishlangan versiyasi hisoblanadi. Shundan boshlab IIS 6.0 o‘zini yuqori darajada himoyalagan Web-serverlar ekanligini yuqori ishonchlilik xavfsizlikni ta’minlovchi ekanligini ko‘rsatib kelmoqda. U ishlab chiqarishdan buyon uzoqlashgan rejimda foydalanish mumkin bo‘lmasan xavfsizlik bo‘yicha xatolikni to‘g‘rilovchi bittayangilash chiqarildi. IIS 7.0 II6 asosiy kodidan tezlik, ishonchlilik va xavfsizlikni meros qilib olib uni yuqori darajada kengayadigan va boshqaradigan Web-server platformasiga aylantirishi , zamonaviy Web-dasturlarni etarlicha quvvat bilan bajaruvchi vositaga aylantirishi lozim edi. Natijada IIs ning eng katta miqdordagi arxitektura yangiliklarini jamlagan istiqbolli MS versiyasi yaratildi. IIS ning asosida to‘liq modulli versiyasi yotib, o‘zida kompakt versiyaga birlashtirilgan, dastur topologiyasida keraklicha optimallashgan 40 dan ortiq komponentalarini jamlagan. Bu komponentalar yangi kengayuvchanlik qatlamida yaratilgan bo‘lib , dastur tuzuvchilarga serverning istalgan funksiyasini mashina kodida yoki MS.NerFrameWork yordamida kengaytirish imkonini beradi. IIS 7.0 bajarish, boshqaruv va ishchi komponentalari kengaytirishni taklif qilish bilan birga konkretehtimollarga mos ravishda kompleks yechimlarni yaratishni yengillashtiradi. IIS platformasida IIS 6. ga nisbatan serverni boshqarish va foydalanish bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal etadi. U tugunlarni boshqarishda huquqlarni to‘liq ta’minlovchi va yakunda Web-dasturlarni xcopy dan foydalanib yechishni reallashtiradigan prinsipial jihanda yangi sozlash tizimiga ega.

Boshqaruv va diagnostik komponentalaridan iborat yangi API interfeyslari yoyish ,adminstrasiyalash va serverning nosozliklarini bartaraf etish protseduralarini oldingilaridan sodda va qulay ko‘rinishga olib keldi.

IIS Web-serveri ,Web-dasturlar yaratishning bir nech xil turli texnologiyalarni quvvatlaydi.

-ASP.Net Windows tizimlari uchun bugungi kunda Web-dasturlar va Web-xizmatlar yaratishning asosiy vositasi hisoblanadi. ASP.Net ni quvvatlash IIS 6.0 dan kiritilgan. Undan oldingi versiyalari uchun alohida NetFrameWork ni ko‘chirib olib o‘rnataladi.

-ASP-senariy asosida dinamik Web-sahifalar yaratishning eskirgan texnologiyasi.IIS 3.0 dan boshlab Web-server tarkibiga kirutilgan.

-CGI-dinamik Web-sahifalar yaratishning standart texnologiyasi. ISAPI-Windows tizimlari uchun IIS ning barcha komponentalarida to‘liq foydalanish imkonini beruvchi kuchli texnologiya. CGI va ISAPI yordamida IIS Web-serverga Web-dasturlarni quvvatlovchi vositalar ,masalan ,PHPva Perl ulanishi mumkin. IIS 7.0 dagi qiziqarli va istiqbolli yangiliklardan biri IIS Media pack hisoblanadi. Ikkita qo‘sishimcha bepul modul Web-serverni zamonaviy mediaeshittirish asbobiga aylanishga imkon berdi.MS ning yangi texnologiyalari media ma’lumotlar raqamli oqimini optimallashga va savodli boshqarishga imkon beradi. Server quyidagi formatli ma’lumotlarni eshittirishga imkon beradi:

ASF, AVI, FLV, MLV, MOV, MP3, MP4, FM,RHVM,WMA,WMV.

Mijoz-server dasturlarini quyidagilarni hisobga olish lozim:

- yaratilayotgan axborot tizimi qanday foydalanuvchilarga mo‘ljallangan;
- xavfsizlikka qanday talab qo‘yiladi.

## 1.2 Web texnologiyalar haqida

**ASP** (Active Server Pages) ASP- ma'lumot bazalarini tashkil etish va ular bilan ishlash vazifalarini bajarishda juda moslashuvchan, qulay vositadir. ASP vositalari server tomonida ishlaydi. HTML kod va ssenariylar kabi fayllarni qayta ishlaydi. ASP texnologiyasi VBScript, Java va JavaScript tillarini qo'llab-quvatlaydi. ASP-kod joylashgan web-sahifa fayllari kengaytmasi .asp bo'ladi. ASP texnologiyasi Windows NT va Microsoft IIS web-servariga mo'ljallangan hisoblanib, imkoniyatlari va samaradorligi yuqori bo'lganligi bois ko'pgina kompaniyalar o'z vositalariga ASP ni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini kiritmoqda. ASP vositalarini ishlab chiqarish bo'yicha yirik kompaniya Chillsoft Lider hisoblanadi. Ko'pgina HTML-muharrirlar, masalan Adobe GoLive ham ASPni qo'llab-quvvatlaydi.

ASP texnologiyasi qulayliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

HTML-hujjatni dinamik generatsiyalaydi, formalarini qo'llab-quvvatlaydi, ma'lumotlar bazasiga ruhsatni tashkil etadi va u bilan ishlay oladi. ASP – dasturlash tili ham ilova ham emas, u interaktiv web-sahifa hosil qilish texnologiyasi.

**PHP** – bu serverda qayta ishlanuvchi ssenariylar tilidir. ASP kabi PHP kodlar ham bevosita HTML-hujjatning tarkibiga qo'shiladi/Ushbu tilning nomi Personal Home Page Tools so'zining qisqartmasidan olingan. PHP da C va Perl tillarida uchragan bir qator muammolar hal etilgan, bundan tashqari, PHP ma'lumotlar bazasi bilan ishlash uchun ham juda qulay vositadir. Umuman olganda PHP ochiq tizimli til hisoblanadi. Ularni dasturchilar modernizatsiyalashtira oladi.

**JSP** (JavaServerPage) texnologiyasi o'zining funksional imkoniyatlariga ko'ra ASP ga o'xshashdir. Asosiy farqi shundaki, bunda VBScript va JavaScript bilan birga Java tili ham qo'llana oladi. Shunga qaramay JSP Javadan oldinroq qo'llanilgan va ushbu texnologiya mukammal web-ilovalar yartish uchun yetarli imkoniyatga ega.

**SSI** (Server Side Include) vositasi dastlab HTML-faylni dastlab serverda qayta ishlaydi va undan so'ng uni klentga uzatadi. Dastlabki qayta ishlash vaqtida hujjatga dinamik generatsiya qilingan ma'lumotlar qo'shiladi. Masalan: joriy vaqt haqidagi ma'lumot. Umuman olganda SSI texnologiyasi HTML-faylning tarkibiga qo'shimcha qo'llanmalar qo'shishga mo'ljallangan, HTMLning qismiga hisoblanadi.

### **1.3 Php tili va undan foydalanish**

#### **PHP haqida qisqacha ma'lumot.**

PHP (Hypertext Preprocessor) — eng ko‘p tarqalgan dasturlash tillaridan biri bo‘lib, Web — dasturlar yaratishda ishlatiladi. Hozirda PHP juda ko‘p hosting-provayderlar tomonidan foydalaniladi, bu esa uni harqanday internet- proyektlarni (oddiygina saytdan tortib, to yirik portallargacha) yaratishda ishlatilatiladigan, sal kam, eng asosiy tilga aylantirdi. PHP da juda ko‘p miqdorda alohida skriptlar, shuningdek, forum, kontent tizimi boshqaruvi kabi tugallangan proyektlar yozilgan.

PHP tarixi. 1994 yili php tiling yaratuvchisi Rasmus Lerdorf o 'zinig saytiga mehmonlar kirishini hisoblash uchun Perl/ CGI(skriptlar to‘plami)da maxsus qobiq yozib, amalda qo ’lladi va uni «Personal Home Page»(PHP nomi shundan kelib chiqqan) deya nomladi. Ammo Perl — sezilarli darajadagi sekin ishlovchi interpretator, tez orada uning ishlash unumdorligi yetmay qola boshladi, shu sababli, Rasmus «C» dasturlash tilida yangi interpretator yaratdi va uni PHP/FI(Personal Home Page / Form Interpreter) deb nomladi. Yangi interpretator Perlga juda o‘xshardi, masalan, o‘zgaruvchini nomi oldidan dollar( \$) belgisini qo‘yish. O‘shandayoq zamonaviy PHP ning poydevori qo‘yila boshlandi (HTML ga kiritish kabilar). 1997-yilda ikkinchi qismi yaratildi — PHP/FI 2.0. U taxminan 50 ming serverga o‘rnatilgan edi. O‘ylab qarasa, bu juda katta raqam, lekin bu internet-serverlarning umumiy sonining atigi 1% ni tashkil etadi. 1998-yilda PHP 3.0 ishlab chiqildi. Aynan shu versiyadan boshlab PHP rekursiv akronim (dasturning qisqartirilgan nomi uning kengaytmasida ham ishlatilishi ) sifatida qo‘llana boshlandi, ya‘ni PHP bu — PHP: Hypertext Preprocessor. Uchinchi

versiya ikknchisiga nisbatan ancha omadliroq chiqdi, u barcha internet-serverlarning 10% iga o‘rnatilindi, bu esa «ancha- muncha»! PHP 3.0 ning yadrosining sekin ishlashi qisman tanqidga uchradi, chunki berilgan masalalar ketma- ketligi yetarlicha tezlikda bajarilmayotgan edi. Shu sababli PHP 4 ni yadroni qayta ishlashdan boshlashdi. To‘rtinchi versiya (PHP 4) 2000- yilning May oyida ishga tushdi. PHP ning ushbu versiyasi 2007-yilning ohirigacha yangilanib kelinadi( Обновление). 2008-yilning Avgust oyidan boshlab bu ish to‘xtatildi. PHP ning beshinchi versiyasi 2004-yil Iyul oyida chiqdi. Zend yadrosi qayta ishlab chiqilgan edi, bu esa interpretatorni unumdorligini oshirdi. Endi PHP o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgan, to‘laqonli dasturlash tili hisoblanar edi, uning obyekt modeli esa ‘Java‘ning modeli bilan juda ko‘p jihatdan o‘xhash. PHP 1.0 — 1995-yil, 8- iyun. Rasmiy nomi “ Personal Home Page Tools (PHP Tools)”. Bu “PHP” qisqartmani birinchi marta ishlatilinishi. PHP 2.0 — 1996-yil, 16- aprel. Veb sahifalarni “Tez va oson ishaydigan qurol” deb e’lon qilingan mahsulot. PHP 3.0 — 1998-yil, 6- iyun , Bir kishi ishlab chiqaruvchi loyihadan ko ’p ishlab chiqaruvchilar loyihasiga aylandi. Endi Gutmans va Ziv Suraski kodni boshqatdan yozib chiqishdi. PHP 4.0.0 — 2000-yil, 22-may. Yangi yadro “ Zend Engine” asosida tuzilgan PHP 4.1.0 — 2001-yil, 10- dekabr. Til konstruktsiyasiga superglobal imkoniyatlар qoshilgan (\$\_GET, \$\_ POST, \$\_SESSION, etc.) PHP 4.2.0 — 2002-yil, 22- aprel. Xavfsizlikni oshirish maqsadida tizimning sozlash “register\_globals” parametri ochirilgan PHP 4.3.0 — 2002-yil, 27- dekabr. “CGI” (Common Gateway Interface)ga qo ’shimcha “CLI” (command line interpreter) texnologiyasi kiritilgan. PHP 4.4.0 — 2005-yil, 11- iyul. phpize va php-config skriptlari uchun qo ’llanma varaqqlari qo’shilgan. PHP 5.0.0 — 2004-yil, 13- iyul. Zend Engine II – yangi obyekt modeli kiritilgan. PHP 5.1.0 — 2005-yil, 24- noyabr. PHP Engine ishlash unumdorligi yaxshilangan. PHP 5.2.0 — 2006-yil, 2- noyabr. Kengaytiradigan filtr modullarining php tizimida ishlatish imkoniyatlari ochiq holati o ’rnatilgan (default). PHP 5.3.3 — 2010-yil, 22- iyul. Axborot xavfsizligi kuchaytirilgan.

## PHP asosiy tuzilishi

Ko'p hollarda PHP tilini interpreterori ishlayotganligini tekshirib ko'rish uchun tuziladigan dastur eng sodda dastur deb ataladi. Hozir biz PHP tilidagi ushbu dasturni chuqur o'rganamiz hamda uni boshqa dasturlash tillari Ci, Perl va JavaScript lardan farqli tomonini tekshiramiz. Ushbu misolni ko'ramiz:

```
<html>
<head>
<title> Misol </title>
</head> <body>
<?php
echo "<p> Salom, bu men - PHP skript!
</p>">
?
</body>
</html>
```

Bu PHP dasturlash tilining maxsus kodli teglari yordamida tuzilgan sodda html-fayldir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, PHP dasturlash tili C va Perl dasturlash tiliga o'xshash. Biroq keltirilgan dastur C va Perl dasturlash tilidagi dasturdan ancha katta farq qiladi. Bu erda HTML sahifaga chiqarish uchun bir qator maxsus buyruqlarni yozish shart emas. Bevosita PHP-kod asosida qurilgan biror vazifani bajaradigan HTML-skript yoziladi (bizni misolda ekranda chiqarilgan matn). PHP dasturlash tilining C va Perl dasturlash tillaridan kamchiligi shuki, murakkab skriptlarni PHP dasturlash tili ancha sekin bajaradi.

**PHP-skriptlar** - bu serverda bajariladigan va qayta ishlanadigan dasturlardir.

Bu skriptlarni JavaScript tipidagi skriptlar bilan taqqoslash mumkin emas, chunki JavaScript tilidagi skriptlarda yozilgan buyruqlar faqat mijoz kompyuteridagina bajariladi. Mijoz kompyuterida va server kompyuterida bajariladigan skriptlarning farqi nimada? Agarda skript serverda qayta ishlansa,

mijoz kompyuteriga faqatgina natija yuboriladi. Masalan, agarda serverda skript bajarilayotgan bo'lsa, yuqorida keltirilganga o'xshab mijoz HTML-sahifa ko'rinishdagi natijani oladi:

```
<html>
<head>
<title> Misol </title>
</head> <body>
<p> Salom, bu men - PHP skript! </p>
</body> </html>
```

Bu holatda mijoz qanday kod bajarilayotganini bilmaydi. O'z serveringizni HTML-fayllarni PHP protsessori qayta ishlaydigan qilib sozlab olishingiz ham mumkin. YA'ni mijozlar oddiy HTML-faylni qabul qildimi yoki skript natijasini ko'rdimi buni bila olmaydi. Agarda skript mijoz kompyuterida qayta ishlansa (masalan, JavaScript tilidagi dastur), u holda mijoz skript kodidan iborat HTMLsahifani ko'radi. Biz yuqorida aytib o'tgandikki, PHP-skriptlar HTML-kod ichida yoziladi. Qanday qilib degan savol tug'iladi. Buning bir nechta usullari mavjud. Bulardan biri birinchi misolda keltirilganidek, **<?php tegi bilan boshlanib ?> tegi bilan tugagan sintaksis**. Bunday ko'rinishdagi maxsus teglar HTML va PHP rejimidagina ishlatiladi.

PHP dasturlash tili faylni qayta ishlayotganda u oddiy matnni PHP kod interpretatsiya qilishi kerak bo'lган maxsus teglarni uchratmaguncha qaytarib beradi. Interpretator haqida gapirganda u topilgan barcha kodni yopiladigan teggacha bajaradi, so'ng yana oddiy matn qaytariladi. Bu mexanizm PHP-kodni HTML sahifaga aylantiradi, ya'ni barcha PHP teglardan tashqari barcha matnlarni o'zgarishsiz saqlaydi va ichkaridagilarni esa interpretatsiyalaydi. Ya'na shuni aytish kerakki, php-fayl CGI-skriptga o'xshamaydi. php-fayl bajarilishi shart emas, yoki yana qandaydir belgilanadi. php-faylni serverda qayta ishlash uchun jo'natishda server tomonidan brauzer satrida bu faylni yo'lini ko'rsatish shart. PHP skriptlar www orqali kirishga ruxsat etilgan joyda joylashishi shart. Agarda php-fayl lokal kompyuterda mavjud bo'lsa, u holda uni buyruqlar satri interpretatori yordamida qayta ishlash mumkin.

## **Asosiy sintaksislari**

Instruktsiyani bir nechta qismga bo'lib ko'rib chiqamiz, ya'ni kommentariylar yaratish, o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va ma'lumot tiplari, operatorlarga. Biz endi PHP dasturlash tilining asosiy sintaksis elementlarini o'rghanishga o'tamiz.

Biz ko'p hollarda misollarda <?php ?>

variant o'rniga qisqartirilgan <? ?> teglardan foydalanamiz.

Instruktsiyalarni ajratilishi.

PHP dasturlash tilidagi dastur(ixtiyoriy dasturlash tilidagi) - bu buyruqlar (instruktsiyalar) to'plamidir. Dasturni qayta ishlash uchun bir buyruqni boshqa buyruqdan farqini bilish kerak. Buning uchun maxsus simvollar - ajratgichlardan foydalaniladi. PHP dasturlash tilida instruktsiyalarni xuddi C yoki Perl dasturlash tillari kabi ajratiladi, ya'ni har bir ifoda nuqtali vergul (";") bilan tugaydi. «?>» yopiladigan teg ham instruktsiyani tugashini anglatadi, shuning uchun undan oldin nuqtali vergul qo'yilmaydi. Masalan, quyidagi ikki fragmentlar ekvivalentdir: <?php echo "Hello, world!"; // buyruqlar oxirida nuqtali vergul qo'yish shart ?>

```
<?php  
echo "Hello, world!" ?>  
<!-- "?>" borligi uchun  
nuqtali vergul tashlab ketildi -->
```

## **Kommentariylar.**

Ko'p hollarda dastur tuzganda kodni tushunarli bo'lishi uchun unga qandaydir izoh-kommentariylar qo'yish kerak bo'lib qoladi. Bu holat katta hajmdagi dasturlar yaratganda hamda agarda bitta dastur ustida bir nechta dasturchi ishlayotganda juda muhim. Kommentariylar dasturning kodi tushunarli bo'lishi uchun yoziladi. Bundan tashqari masalani qismlarga ajratib hal qilinganda ishning kamchiligi bor joyida keyinchalik esdan chiqmasligi uchun kommentariya yozib qo'yiladi. Barcha dasturlash tillarida dastur ichiga kommentariya qo'shish imkoniyati mavjud. PHP dasturlash tili bir qancha ko'rinishdagi kommentariylarni qo'llab quvvatlaydi: Ci, C++ dasturlash tillari

stilidagi hamda Unix qobig'idagi kommentariylar. // va # belgilar bir satrli kommentariylarni anglatsa, /\* va \*/ belgilar esa mos ravishda ko'p satrli kommentariylarning boshlanish va tugashini anglatadi.

**Misol:** PHP dasturlash tilida kommentariyning qo'llanilishi

```
<?php  
echo "Meni ismim Alisher";  
// Bu bir satrli kommentariy  
// C++ dasturlash tili stilidagi  
echo "Meni familiyam Murodov";  
/* Bu ko'p satrli kommentariy. Bu erga bir qancha satr yozish mumkin.  
Dastur bajarilish jarayonida bu erdag'i barcha yozuvlar (kommentariylangan),  
o'qilmaydi.  
*/ echo "Men PHP dasturlash tilini o'rganyapman";  
# Bu kommentariy  
# Unix qobig'idagi kommentariy. ?>
```

### **O'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va operatorlar**

Har bir dasturlash tilida muhim elementlardan biri bu o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va ular qo'llaniladigan operatorlardir. PHP dasturlash tili bu elementlarni qanday belgilashi va qayta ishlashini ko'rib chiqamiz. O'zgaruvchilar PHP dasturlash tilida o'zgaruvchilar oldiga dollar belgisi ("\$") qo'yib e'lon qilinadi, masalan, \$my var.

O'zgaruvchilar nomlari registrlarni farqlaydi, ya'ni \$my var hamda bosh harfli \$My var o'zgaruvchilari turli xil o'zgaruvchilardir.

PHP dasturlash tilida o'zgaruvchilar nomi qolgan dasturlash tillari qoidalari kabi e'lon qilinadi: o'zgaruvchi nomi lotin alfaviti bilan boshlanishi va undan keyin harflar yoki tagiga chizilgan belgi yoki raqamlar bo'lishi mumkin.

**Misol.**

```
<?php  
$a = "Hello, world";  
echo ($a);  
// natija sifatida "Hello, world" texti chiqadi.
```

?>

## O'zgarmaslar.

Skript bajarilish jarayonida o'zgarmaydigan qiymatli kattaliklarni saqlash uchun o'zgarmaslardan foydalaniladi. Bunday kattaliklar matematik o'zgarmaslar, parollar, fayllarning yo'llari va boshqalar bo'lishi mumkin. O'zgarmaslarning o'zgaruvchilardan asosiy farqi shuki, ularni faqat bir martagina o'zlashtiriladi va uni qiymatini e'lon qilingandan keyin bekor qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari o'zgarmaslar oldida dollar belgisi qyilmaydi hamda uni oddiy qiymat o'zlashtirish kabi qarash mumkin emas. O'zgarmaslar qanday aniqlanadi? Buning uchun maxsus define( ) funksiyasi mavjud, uning sintaksi si quyidagichadir:  
define("O'zgarmas nomi", "O'zgarmas qiymati", [registrga sezgirligi kichik])

O'zgarmaslar nomi registrga segirligi katta. Har bir o'zgarmaslarda uni o'zgartirish mumkin, ya'ni registrga sezgirligi kichik argumentni qiymati sifatida True qiymati ko'rsatiladi. O'zgarmaslar nomi har doim katta registr bilan yozishga kelishib olingan. O'zgarmasni qiymatini bilish uchun uni nomini ko'rsatish kerak.

O'zgaruvchidan farqi o'zgarmas nomi oldiga \$ belgi qo'yilmaydi. Bundan tashqari o'zgarmasni qiymatini bilish uchun konstanta nomi bilan parametr sifatida **constant()** funksiyasidan foydalanish mumkin.

**Misol.** PHP dasturlash tilida o'zgarmaslar.

```
<?php  
// o'zgarmasni aniqlaymiz  
PASSWORD  
define("PASSWORD","qwerty");  
// registrланмаган PI o'zgarmasni qiymatini aniqlaymiz  
3.14 define("PI","3.14", True);  
// PASSWORD o'zgarmas qiymatini olamiz, ya'ni  
qwerty echo (PASSWORD); // bu ham qwerty ni
```

```

chiqaradi echo constant("PASSWORD"); echo
(password);
/* password ni chiqaradi va biz registrlangan o'zgarmas PASSWORD ni
kutgandik */ echo pi;
// 3.14 ni chiqaradi, chunki o'zgarmas PI registrlanmagan va
aniqlangan. ?>

```

### **Amallar.**

O'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va ifodalar ustida turli hisoblashlarni bajaradigan bu amallardir. Biz hali bu ifodalar haqida to'xtab o'tganimiz yo'q. Ifodalar qiymatini ushbu amallar yordamida aniqlanadi. O'zgaruvchilar va o'zgarmaslar - bu ifodalarning asosiy va juda sodda shaklidir. SHunday ifodalarni ko'paytirishi mumkin bo'lgan amallar to'plami mavjud. Ularni quyida to'liqroq muhokama qilamiz:

#### 1.3.1-jadval. PHPda arifmetik amallar.

| <b>Arifmetik amallar.</b> |                    |              |
|---------------------------|--------------------|--------------|
| <b>Belgilanishi</b>       | <b>Nomlanishi</b>  | <b>Misol</b> |
| +                         | Qo'shish           | \$a + \$b    |
| -                         | Ayirish            | \$a - \$b    |
| *                         | Ko'paytirish       | \$a * \$b    |
| /                         | Bo'lish            | \$a / \$b    |
| %                         | Bo'lishdagi qoldiq | \$a %<br>\$b |

#### 1.3.2-jadval. O'zlashtirish amallari.

| <b>O'zlashtirish amallari.</b> |                    |                                     |  |
|--------------------------------|--------------------|-------------------------------------|--|
| <b>Belgila nishi</b>           | <b>Nomlan ishi</b> | <b>Izox</b>                         | <b>Misol</b>                                 |
| =                              | O'zlashtirish      | Operatoridan o'ng<br>tomonda turgan | \$a = (\$b = 4) +5;<br>(\$a 9 ga teng, \$b 4 |

|     |  |   |  |
|-----|--|---|--|
|     |  | o'zgaruvchilar<br>ustida bajarilgan<br>amallardan hosil<br>bo'lghan natija<br>qiymati<br>o'zlashtiriladi.   | ga teng)   |
| + = |  | Qisqartirish.<br><br>O'zgaruvchiga<br>son qo'shiladi va<br>keyin natija<br>o'zlashtiriladi.   | \$a += 5;<br><br>(\$a = \$a + 5<br>ifodaga<br>ekvivalent;)   |
| . = |  | O'zlashtirish va<br>konkatenatsiya<br>amallari<br>kombinatsiyasini<br>qisqartirilgan<br>shakli(dastavval<br>satrlar qo'shiladi,<br>so'ngra hosil<br>bo'lgan satr<br>o'zgaruvchiga<br>o'zlashadi). | \$b = "Hammaga ";<br><br>\$b .= "salom";<br>(\$b = \$b . "salom"<br>ifodaga<br>ekvivalent;)<br><br>Natijasi:<br><br>\$b="Hammaga<br>salom" |

### 1.3.3-jadval. Mantiqiy amallar.

| Mantiqiy amallar. |            |                        |               |
|-------------------|------------|------------------------|---------------|
| Belgilanishi      | Nomlanishi | Izox                   | Misol         |
| and               | VA         | \$a va \$b rost (True) | \$a and       |
| &&                | VA         |                        | \$b<br>\$a && |

|     |                    |  |                   |
|-----|--------------------|--|-------------------|
| or  | YOKI               | \$a yoki \$b o'zgaruvchilardan hech bo'limganda bittasi rost bo'lsa (ikkalasi ham rost bo'lishish mumkin). | \$b \$a or<br>\$b |
|     | YOKI               |  | \$a    \$b<br>\$a |
| xor | Inversiya<br>YOKI  | O'zgaruvchilardan bittasi rost bo'lsa. Agarda ikkalasi ham rost bo'lsa inversiyalanadi.                    | xor \$b           |
| !   | Inversiya<br>(NOT) | Agarda \$a=True, u holda !\$a=False va aks holda teskarisi bo'ladi.  | ! \$a             |

#### 1.3.4-jadval. Taqqoslash amali.

| Taqqoslash amallari |                 |                                     |                           |
|---------------------|-----------------|-------------------------------------|---------------------------|
| Belgilanishi        | Nomlanishi      | Izox                                | Misol                     |
| ==                  | Tenglik         | O'zgaruvchilar qiymatlari teng      | \$a == \$b \$a ===        |
| ==                  | Ekvivalentlik   | O'zgaruvchilar qiymatlari teng      | \$b \$a != \$b            |
| !=                  | Tengsizlik      | O'zgaruvchilar qiymatlari va        |                           |
| <                   | Tengsizlik      | O'zgaruvchilar qiymatlari teng      |                           |
| <>                  | Noekvivalentlik | O'zgaruvchilar qiymatlari teng      |                           |
| !==                 | Kichik          | O'zgaruvchilar qiymatlari teng emas |                           |
| <                   |                 | O'zgaruvchilar ekvivalent emas      | \$a < > \$b \$a !=<br>\$b |

|    |                  |  |            |
|----|------------------|--|------------|
|    |                  |  | \$a < \$b  |
| >  | Katta            |  | \$a > \$b  |
| <= | Kichik yoki teng |  | \$a <= \$b |
| >= | Katta yoki teng  |  | \$a >= \$b |

### 1.3.5-jadval. Inkrement va dekrement amallari.

| Inkrement va dekrement amallari. |                      |   |
|----------------------------------|----------------------|---|
| Belgilanishi                     | Nomlanishi           | Izox  |
| <code>++\$a</code>               | <i>Preinkrement</i>  | \$a qiymati birga oshiriladi va \$a qiymati qaytariladi             |
| <code>\$a++</code>               | <i>Postinkrement</i> | \$a qiymati qaytariladi va so'ngira \$a qiymati birga oshiriladi    |
| <code>--\$a</code>               | <i>Predekrement</i>  | \$a qiymati birga kamaytiriladi va \$a qiymati qaytariladi          |
| <code>\$a--</code>               | <i>Postdekrement</i> | \$a qiymati qaytariladi va so'ngira \$a qiymati birga kamaytiriladi |

### Ma'lumotlar tiplari

PHP dasturlash tili sakkizta sodda *ma'lumot tiplarini* qo'llab quvvatlaydi:

To'rttasi skalyar *tiplar*: . *boolean (mantiqiy)*; . *integer (butun)*; . *float (nuqtasi siljiydigan)*; . *string (satrli)*.

Ikkitasi aralish *tiplar*: .

*array (massiv)*; . *object (obyekt)*.

PHP dasturlash tilida o'zgaruvchilar tiplari oshkora e'lon qilinmaydi. Ko'pincha o'zgaruvchi qo'llanilgan konteksdan, ya'ni o'zgaruvchiga o'zlashtirilgan qiymat itpidan mustaqil ravishdagi dastur bajarilish jarayonidan

interpreter o'zi bu ishni bajaradi. Quyida yuqorida sanab o'tilgan *ma'lumotlar tiplarini* birma-bir ko'rib chiqamiz.

### **Boolean tipi(Bul yoki mantiqiy tip).**

Bu sodda tip qiymatni rost ekanligini ifodalaydi, ya'ni o'zgaruvchi faqat ikkita qiymat qabul qiladi - rost TRUE yoki yolg'on FALSE.

Mantiqiy tiplarni aniqlash uchun TRUE yoki FALSE kalit so'zlaridan foydalanamiz. Bu ikkala tiplar registrланмаган.

**Misol.** Mantiqiy tip. <?php

```
$test =True; ?>
```

Mantiqiy tiplar turli *boshqariladigan konstruktsiyalarda* (tsikllar, shartlar va shunga o'xshash, bular haqida keyinroq aytib o'tamiz) qo'llaniladi. Bir qancha amallar (masalan, tenglik amali) ham mantiqiy tip qabul qilishi mumkin, ya'ni faqat ikki qiymat rost yoki yolg'on qiymatni qabul qiladi. Ular *boshqariladigan konstruktsiyalarda* shartlarni tekshirish uchun qo'llaniladi. Masalan, shartli konstruktorda amallar yoki o'zgaruvchilar qiymati haqiqiyligini tekshiradi va natijadan qat'iy nazar shu yoki boshqa amallarni bajarilishini tekshiradi. Bu erda shart rost yoki yolg'on bo'lishi

mumkin, chunki *mantiqiy tip amallari* va *o'zgaruvchilar* ko'rsatilgan.

**Misol.** Mantiqiy tiplarning qo'llanilishi.

```
<?php  
// '==' amal tenglikka tekshiradi mantiqiy qiymatni qaytaradi  
if ($know == False) { // agar $know qiymat false bo'lsa  
    echo "PHP dasturlash tilini o'rghan!";  
}  
  
if (!$know) { // xuddi yuqoridagidek $know qiymati false bo'ladi  
    echo " PHP dasturlash tilini o'rghan!";  
}  
  
/* == amal $action o'zgaruvchi qiymati bilan "PHP dasturlash tilini o'rganish!"  
satrni  
ustma-ust tushishini tekshiradi. Agar ustma-ust tushsa true qiymatni qaytaradi,  
boshqa
```

holda false ni qaytaradi. Agar true ni qaytarsa figurali qavs ichidagi amallar bajariladi. \*/

```
if ($action == " PHP dasturlash tilini o'rganish ")
{ echo "O'rganishni boshladim";}
?>
```

### **Integer (butun) tipi.**

Bu tip butun sonlar to'plamidan  $Z = \{\dots, -2, -1, 0, 1, 2, \dots\}$  birini qaytaradi. Butun sonlar xohishga qarab oldiga «-» yoki «+» belgilarni qo'yib sanoq sistemasini o'nlik, o'n otilik yoki sakkizlik tizimlarida ko'rsatilgan bo'lishi mumkin.

Agar siz sakkilik sanoq sistemasidan foydalanayotgan bo'lsangiz, oldindan 0 (nol) raqamini ko'rsatishingiz kerak. O'n otilik sanoq sistemasida esa raqamlar oldiga 0x belgini qo'yish shart. <?php

```
#o'nlik    raqam
$a = 1234;
#manfiy son
$a = -123;
#sakkizlik son (o'nlik sistemasidagi
#83 songa ekvivalent) $a
= 0123;
#o'n otilik son (o'nlik sistemasidagi
#26 songa ekvivalent) $a
= 0x1A;
?>
```

*Butun sonni* o'lchami platformaga bog'liq, lekin qoidaga ko'ra maksimal qiymati ikki milliard (bu ishorali 32 bitli qiymat) atrofida bo'ladi. Ishorasiz *butun sonni* PHP dasturlash tili qo'llab quvvatlamaydi.

Agar siz *butun son* chegarasidan tashqari biror qiymat bersangiz interpreterator bu sonni *qo'zg'aluvchan vergulli* songa o'zgartiradi. Xuddi shunday *butun son* chegarasidan tashqari chiqib ketadigan biror amal bajarsangiz ham bu sonni *qo'zg'aluvchan vergulli* songa o'zgartiriladi.

*PHP* dasturlash tilida butun sonlarni bo'lish amali mavjud emas. 1/2 ifoda qiymati *qo'zg'aluvchan vergulli son* 0.5 ga teng. Siz natijangizni butun tipga standart qoida asosida yoki round( ) funksiyasidan foydalangan taqdirda o'zgartirishingiz mumkin. O'zgaruvchini aniq bir tipga o'zgartirish uchun uning oldiga qavs ichida kerakli tipni yozish kerak bo'ladi. Masalan, \$a=0.5 o'zgaruvchini butun tipga o'zgartirish uchun (integer)(0.5) yoki (integer) \$a ko'rinishda yoki qisqartirilgan (int)(0.5) ko'rinishda yozish kerak bo'ladi. Bunday oshkora yangi tipga o'tish imkoniyati barcha *ma'lumotlar tiplari* uchun o'rinni bo'ladi (albatta, har doim ham qiymatni bir tipdan boshqasiga olib o'tish shart emas). Biz keltirilgan barcha tiplarni chuqur o'rganishimiz shart emas, chunki *PHP* dasturlash tili konteksdan mustaqil ravishda o'zi bu ishlarni bajaradi. **Floating point (Qo'zg'aluvchan vergulli son) tipi.**

*Qo'zg'aluvchan vergulli sonlar* (ular ikki karra aniqlik yoki haqiqiy sonlardir) quyidagi sintaksislardan yordamida aniqlanishi mumkin: <?php \$a = 1.234; \$b = 1.2e3; \$c = 7E-10; ?>

*Qo'zg'aluvchan vergulli sonni* o'lchami ham platformaga bog'liq, lekin qoidaga ko'ra maksimal qiymati ~1.8e308 aniqlik bilan 14 xonali raqam atrofida bo'ladi.

### **Resource (resurslar) tipi.**

**Resurs** - bu tashqi resursga (masalan, ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish) ssylka orqali bog'langan maxsus o'zgaruvchidir. Resurslar maxsus funksiyalar (masalan, MySQL\_connect( ), pdf\_new( ) va shunga o'xshashlar) yordamida yaratiladi va foydalaniлади.

### **Null tipi.**

Maxsus *NULL* qiymati o'zgaruvchini qiymatga ega emasligi haqida ogohlantiradi. O'zgaruvchi *NULL* qiymat qabul qiladi, agarda: . unga h *zgarmas* *NULL* (\$var = NULL) o'zlashtirilgan bo'lsa; . unga ech qanday qiymat berilmagan bo'lsa; . u *unset* ( )funksiya yordamida tozalangan bo'lsa.

*NULL* tipi faqat bitta qiymati mavjud - registrga sezgirligi kichik *NULL* kalit so'zidir.

### **PHP tilining boshqaruv operatorlar (if, switch, for, while,?).**

if operatori shart operatori hisoblanadi. Uning sintaksisi quyidagicha:

*if(shart) ifoda1 else ifoda2.*

```
<?php  
$a=1;  
$b=2;  
If ($a>$b) {echo($a)  
Else echo($b); } ?>
```

**Switch** tanlash shart operatori. Umumiy sintaksisi

```
switch(expression) // qiymat  
{  
    case value1: // 1-ifoda  
        statements; // operator bloki  
        break;  
    case value2: // 2-ifoda  
        statements; opertor bloki  
        break;  
    default:  
        statements; operator bloki.
```

Misol:

```
<?php  
switch($number)  
{  
    case 1:  
        echo ("one ");  
    case 2: case 3:  
        echo ("free");  
    case 4: case 5:  
        echo ("five");  
    case 6: case 7:  
        echo ("seven");  
    case 8: case 9:  
        echo ("nine");  
    break;  
    default:  
        echo ("This isn't number or number is > 9 or < 1");  
}  
?>
```

**for** takrorlash operatori. Bu operatorning berilish sintaksisi quyidagicha:

```
for(expression1;expression2;expression3)  
{  
    statements;
```

```
}
```

**Misol:**

```
<?php
$var = 5;
$i = 0;
for ($i = 0; $i <= $var; $i++)
{
    echo($i);
    echo('<br>');
} ?>
```

**while** sikl operatori. Bu operator ishlatalishi C++ dagi kabi ishlataladi.

Shart chin qiymat qabul qilganda berilgan amal bajariladi. While ga quyidagi misolni keltirib o'tamiz:

```
<?php
$var = 5;
$i = 0;
while(++$i <= $var)
{
    echo($i); echo('<br>');
}
?>
```

**PHP da funksiya va sinflar.** PHPda funksiyalarining berilishi quyidagicha:

**Function <funksiya nomi> (parametr) {operator}**

Misol: oddiy funksiya.

```
<? function summ( ) {
    $a=5;
    $b=6;
    $c=$a+$b;
    return $c;
    echo (summ( ));
}
?>
```

Endi parametrlı funksiyaga misol:

```
<? function summ($a,$b) {
    $c=$a+$b;
    echo ($c);
}
summ(5,3);
?>
```

## **II bob. XML va undan foydalanish**

### **2.1 XML tili va uning sintaksisi**

XML (eXtensible Markup Language) – Kengaytirilgan formatlash tili hisoblanadi. XML HTMLga o’xshash formatlashtiruvchi tildir. HTMLdan farqli tarafi shundaki bunda dasturchi o’zi yangi teg yaratib undan foydalanib borish imkoniyatini beradi. Bu til ma’lumotlarni saqlash va tahrirlash uchun juda ham qulay hisoblanadi. XML tilining rivojlanishi 1996-yildan boshlangan. Bu ish bilan W3C (World Wide Web Consortium) tashkiloti shug’ullangan. Bu tashkilotning rasmiy web-manzili [www.3wc.org](http://www.3wc.org). Aynan XML uchun berilgan sahifasi esa quyidagidan iborat: [www.3wc.org/XML/](http://www.3wc.org/XML/).

XML sintaksisi qoidalari oson va ularni o’rganish juda ham qulay. Demak, XML hujjat sintaksisi qoidalari bilan tanishishni boshlaymiz.

<?...?> xml belgisi va versiyasi ifodalanishi shart. U quyidagicha beriladi:

<? xml version=”1.0”?>

Bundan tashqari, xml da kodirovkani ham berish maqsadga muofiq bo’ladi. Odatda kodirovka hujjatda **UTF-8** xalqaro standart bo’yicha yoziladi.

<? xml version=”1.0” encoding=UTF-8>

**XMLda kommentarilar esa quyidagicha ishlataladi:**

<!- - bu izoh - - >

1-misol:

```
<? xml version="1.0" encoding="UTF-8"?>
<note>
    <to>Tove</to>
    <from>Jani</from>
    <heading>Reminder</heading>
    <body>Don't forget me this weekend!</body>
</note>
```

Bu misolning natijasini tekshirib ko’ramiz:



This XML file does not appear to have any style information associated with it. The document tree is shown below.

```
▼ <note>
  <to>Tove</to>
  <from>Jani</from>
  <heading>Reminder</heading>
  <body>Don't forget me this weekend!</body>
</note>
```

### 2.1.1-rasm.

2-misol:


```
<?xml version="1.0" encoding="UTF-8"?>
<breakfast_menu>
<food>
  <name>Belgian Waffles</name>
  <price>$5.95</price>
  <description>
    Two of our famous Belgian Waffles with plenty of real maple syrup
  </description>
  <calories>650</calories>
</food>
<food>
  <name>Strawberry Belgian Waffles</name>
  <price>$7.95</price>
  <description>
    Light Belgian waffles covered with strawberries and whipped cream
  </description>
  <calories>900</calories>
</food>
```

```
<food>
    <name>Berry-Berry Belgian Waffles</name>
    <price>$8.95</price>
    <description>
        Belgian waffles covered with assorted fresh berries and whipped cream
    </description>
    <calories>900</calories>
</food>

<food>
    <name>French Toast</name>
    <price>$4.50</price>
    <description>
        Thick slices made from our homemade sourdough bread
    </description>
    <calories>600</calories>
</food>

<food>
    <name>Homestyle Breakfast</name>
    <price>$6.95</price>
    <description>
        Two eggs, bacon or sausage, toast, and our ever-popular hash browns
    </description>
    <calories>950</calories>
</food>
</breakfast_menu>
```

## **XML daraxt tuzilishi:**



2.1.2-rasm.

Yuqoridagi rasm asosida tuzilgan XML formatdagi kitob haqida ma'lumot beradigan misolni ko'rib chiqamiz.

```
<?xml version="1.0" encoding="UTF-8"?>
<bookstore>
    <book category="cooking">
        <title lang="en">Everyday Italian</title>
        <author>Giada De Laurentiis</author>
        <year>2005</year>
        <price>30.00</price>
    </book>
    <book category="children">
        <title lang="en">Harry Potter</title>
        <author>J K. Rowling</author>
        <year>2005</year>
        <price>29.99</price>
    </book>
    <book category="web">
        <title lang="en">Learning XML</title>
        <author>Erik T. Ray</author>
        <year>2003</year>
        <price>39.95</price>
    </book>
</bookstore>
```

Demak, XML daraxtning tuzulishi:

XML - hujjatlari element daraxtlari sifatida shakllanadi.

XML - daraxti ildiz elementi va filialni ildizdan pastki elementlarga boshlaydi.

Barcha elementlar ichki qismlari (bolalari) bo'lishi mumkin:

```
<root>
```

```
  <child>
```

```
    <subchild>....</subchild>
```

```
  </child>
```

```
</root>
```

XML teglari katta / kichik harflarga sezgir. <Letter> yorlig'i <letter> tegidan farq qiladi.

XML o'z-o'zini tushuntirib beruvchi sintaksisini juda ko'p ishlatadi.

Keyingi qator hujjatning asosiy elementi:

```
<bookstore>
```

Keyingi satrda <book> elementi boshlanadi:

```
<book category = "cooking">
```

<Book> elementlarida 4 ta kichik element mavjud: <title>, <author>, <year>, <price>.

```
  <title lang = "en"> Kunlik italyancha </ title>
```

```
  <Muallif> Giada De Laurentis </ author>
```

```
  <year> 2005 </ year>
```

```
  <price> 30.00 </ price>
```

Keyingi satrning book elementini tugatadi:

```
  </ book>
```

Ushbu misoldan XML hujjatiga kitob do'konidagi kitoblar haqida ma'lumot kiritilganini ko'rishimiz mumkin.

### **XML sintaksisi qoidalari**

XML hujjatlari ildiz elementiga ega bo'lishi kerak.

XML hujjatlari barcha boshqa elementlarning asosiy elementlaridan biri bo'lishi kerak:

```
<root>
```

```
  <bola>
```

```
    <subchild> .... </ subchild>
```

```

</ child>
</ root>

Ushbu misolda <note> - ildiz element:

<? xml version = "1.0" kodlash = "UTF-8"?>
<eslatma>
    <to> Tove </ to> ga bosing
    <dan> Jani </ from>
    <sarlavhasi> eslatma </ heading>
    <body> Meni bu hafta oxiri unutmang! </ body>
</ note>
```

XMLda yopilish yorlig'ini bekor qilish noqonuniy hisoblanadi. Barcha elementlar yopilish yorlig'iga ega bo'lishi kerak:

```

<p> Bu xat. </ p>
<br /> <br />
```

Kirish va yopish teglari bir xil holatda yozilishi kerak:

```
<message> Bu to'g'ri </ message>
```

"Ochish va yopish teglari" ko'pincha "Boshlash va tugatish belgilar" deb nomланади.

**Eslatma:** XML prologida yopilish yorlig'i yo'q! Bu xato emas. Prolog XML hujjatining bir qismi emas.

XML elementlari to'g'ri joylashtirilgan bo'lishi kerak. XML formatida barcha elementlar bir-biriga to'g'ri joylashtirilgan bo'lishi kerak:

```
<b> <i> Ushbu matn qalin va kursivdir </ i> </ b>
```

Yuqoridagi misolda "to'g'ri kiritilgan" oddiygina <i> elementi ichida <b> elementi ochilganligi tufayli <b> element ichida yopilishi kerakligini bildiradi.

XML elementlari HTML-da bo'lgani kabi nom / qiymat jufti bilan atributlarga ega bo'lishi mumkin. Faqat, XML formatida atribut qiymatlari har doim keltirilishi kerak:

```

<note date="12/11/2018">
    <to>Tove</to>
    <from>Jani</from>
```

</note>

Bu yerda date- atribut sifatida qo'llanilgan.

XMLda bir nechta oq bo'shliqlarni qisqartirmaydi (HTMLda esa bir necha oq bo'shliqlarni bitta bo'shliqqa qisqartiradi):

|       |            |      |
|-------|------------|------|
| XML:  | Hello      | Tove |
| HTML: | Hello Tove |      |

### **XML xususiyatlari(attributlar).**

XML elementlari xuddi HTML kabi atributlarga ega bo'lishi mumkin. Xususiyatlardan muayyan elementga tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olishi uchun yaratiladi. Albatta, XML da attribut qiymatlari ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bunda ular bitta yoki juft tirnoqlar bilan yoziladi. Bir kishining ma'lumoti uchun <person> elementi shunday yozilishi mumkin:

<person gender="female">  
yoki shunga o'xshash:

<person gender='female'>

Agar attribut qiymati o'zi juft tirnoqlardan iborat bo'lsa, ushbu misol kabi bitta tirnoqlardan foydalanishingiz mumkin:

<gangster name='George "Shotgun" Ziegler'>  
bu ham xato hisoblanmaydi.

XML elementlari va attributlardan iborat quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz:

```
<person gender="female">
<firstname>Anna</firstname>
<lastname>Smith</lastname>
</person>
<person>
<gender>female</gender>
<firstname>Anna</firstname>
<lastname>Smith</lastname>
</person>
```

Birinchisida female attribut sifatida kelga, ikkinchisida esa element bo'lib kelgan.

Atributlardan foydalanishda e'tiborga olinadigan ayrim narsalarni keltirib o'tamiz:

- Xususiyatlar bir nechta qiymatlarni o'z ichiga olmaydi.
- atributlar daraxt tuzilmalarini o'z ichiga olmaydi.
- Xususiyatlar kengaytirilishi mumkin emas.

### **Metadata uchun XML xossalari.**

Ba'zan identifikatsiya ma'lumotnomalari elementlarga beriladi. Ushbu identifikatorlar XML elementlarini identifikatsiyalash HTML-da bir xil tarzda identifikatsiyalash uchun ishlatalishi mumkin. Ushbu misolda shu narsa keltirib o'tilgan:

```
<messages>
  <note id="501">
    <to>Tove</to>
